


## SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1-sentabr holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

### I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 40 622 tani tashkil etdi, shundan 34 269 tasi yoki 84,4 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024-yilning shu davriga nisbatan 99,1 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 98,3 foizni tashkil etdi.



	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		shundan: Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
2025	40 622	34 429	34 269
2024	40 973	35 076	34 866
2023	42 967	37 131	36 931
2022	52 122	46 226	46 024
2021	45 344	39 582	39 405

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Samarqand shahrida – 30,0 foiz, Samarqand – 8,2 foiz, Pastdarg'om – 7,4 foiz, Urgut – 7,6 foiz va Payariq – 4,9 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Samarqand shahrida – 31,2 va 31,0 foiz, Samarqand tumanida – 8,8 va 8,8 foiz, Pastdarg'omda tumanida – 7,3 foiz va 7,3 foiz, hamda Urgut tumanida – 7,3 va 7,4 foiz to'g'ri keldi

	<b>Korxona va tashkilotlar</b>	<i>shundan:</i>	
		<b>Tadbirkorlik subyektlari</b>	<i>shundan:</i>
		<b>Kichik biznes subyektlari</b>	
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>40 622</b>	<b>34 492</b>	<b>34 269</b>
Samarqand sh.	12 191	10 755	10 641
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar	1 295	1 120	1 114
Oqdaryo	1 600	1 357	1 354
Bulung'ur	1 731	1 435	1 428
Jomboy	1 537	1 311	1 301
Ishtixon	1 900	1 557	1 555
Kattaqo'rg'on	2 009	1 641	1 635
Qo'shrabot	1 143	895	891
Narpay	1 429	1 133	1 131
Payariq	2 020	1 664	1 659
Pastdarg'om	3 028	2 532	2 517
Paxtachi	1 138	883	877
Samarqand	3 347	3 048	3 022
Nurobod	1 397	1 154	1 151
Urgut	3 108	2 532	2 522
Toyloq	1 749	1 475	1 471

#### **Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

## **Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda. Ularning ulushi 2025-yil 1-sentabr holatiga 35,9 foizni (42,3 foiz va 42,5 foiz) tashkil etdi.



## **Korxona va tashkilotlar**


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 11,9 % (14,0 % va 13,9 %), uchinchi o'rinda "Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar" 8,6 % (10,1 % va 10,2 %).

Birgalikda ushbu uch turdag'i faoliyat ularning umumiyligini sonining 50 % dan ortig'ini tashkil qiladi.

	<b>Korxona va tashkilotlar</b>	<i>shundan:</i>	
		<b>Tadbirkorlik subyektlari</b>	<i>shundan:</i>
		<b>Kichik biznes subyektlari</b>	
<b>Jami</b>	<b>40 622</b>	<b>34 492</b>	<b>34 269</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 584	2 545	2 537
Sanoat	4 828	4 819	4 760
Qurilish	2 197	2 177	2 158
Savdo	14 602	14 601	14 561
Tashish va saqlash	1 041	1 034	1 015
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 505	3 493	3 479
Axborot va aloqa	678	658	650
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 255	964	959
Boshqa turlar	9 932	4 201	4 150

## **II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar**

2025-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, 34 492 ta faol tijorat korxonalaridan 23 633 tasini mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



### **Tadbirkorlik subyektlari**


	<b>Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)</b>	<b>Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)</b>
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	23 633	68,6
Xususiy korxonalar	3 982	11,5
Oilaviy korxonalar	6 560	19,0
Aksiyadorlik jamiyat	24	0,1
Boshqalar	293	0,8

Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

### **III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar**

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalarini ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 629 ta korxonalardan 257 tasi qo'shma korxonalar va 372 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



#### **Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar**

2025-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 59 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 143 tadan 163 taga, (o'sish 20 taga), axborot va aloqa sohasida 19 tadan 24 taga (o'sish 5 taga), hamda tashish va saqlashva sohasida 15 tadan 27 taga (o'sish 12 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
<b>Jami:</b>	<b>629</b>	<b>257</b>	<b>372</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	38	22	16
Sanoat	228	125	103
Qurilish	36	14	22
Savdo	163	40	123
Tashish va saqlash	27	9	18
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	33	11	22
Axborot va aloqa	24	4	20
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	16	8	8
Boshqa turlar	64	24	40

## **Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar**

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 167 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiylar sonining 26,5 foizini tashkil etdi. Viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Turkiya (17,5 %), Rossiya Federatsiyasi (15,6 %), Janubiy Koreya (4,8 %) va Tojikiston (3,5 %) ham alohida o'rinni egallaydi.

	<b>Jami:</b>	<i>shundan:</i>	
		<b>Qo'shma korxona</b>	<b>Xorijiy korxona</b>
<b>Jami:</b>	<b>629</b>	<b>257</b>	<b>372</b>
Xitoy	167	56	111
Turkiya	110	38	72
Rossiya	98	38	60
Janubiy Koreya	30	14	16
Tojikiston	22	5	17
Afg'oniston	19	9	10
AQSH	18	14	4
Germaniya	16	14	2
BAA	17	5	12
Qozog'iston	15	4	11
Hindiston	15	3	12
Ozarbayjon	11	5	6
Pokiston	8	1	7
Buyuk Britaniya	6	5	1
Yaponiya	4	4	-
Qirg'iz Respublikasi	3	-	3
Turkmaniston	3	2	1
Belorusiya	3	1	2
Boshqa Davlatlar	64	39	25

#### IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

##### Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

##### Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)



Samarqand viloyati  
statistika boshqarmasi

E'lon qilish sanasi:  
10.09.2025-yil

PRESS-RELIZ  
Korxona va tashkilotlar  
demografiyasi bo'yicha ma'lumot

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Raqamlashtirish va Statistik  
registrlarni yuritish bo'limi

**Ijrochi:**  
F. Zulfukarov  
66 231-12-58 (3060)

**Maznil:**  
140100, Samarqand sh.,  
U.Tursunov ko'chasi, 82-uy

---